O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI”

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI TO'PLAMI



21.05.2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“Global va milliy iqtisodiyotning asosiy muammolari va rivojlanish yo‘nalishlari”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2024-yil 21-may

II qism

SAMARQAND-2024

UO‘K: 330.5(575.1)
A80
KBK: 65.05O‘z

Global va milliy iqtisodiyotning asosiy muammolari va rivojlanish yo‘nalishlari // xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2024-yil 21-may. Samarqand, SamISI, 2024. – 275 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
Z.S.Artikov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Nashr uchun mas’ullar:
D.X.Aslanova – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;
G.M.Shadiyeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
B.A.Abdukarimov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
T.S.Sharipov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
Sh.O.Quvandiqov – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Sh.A.Sultonov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
R.J.Qurbonova – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
U.N.Nurmorodov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Abdullayeva – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
B.O.Do‘stmatov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
A.P.Xazratov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
L.U.Maxmudov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
N.B.Ruziyeva – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
A.A.Bektemirov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

Sahifalovchilar:
M.E.Erdonov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
Sh.N.Mirzayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
S.B.Iskandarov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
A.I.Asrorov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
V.A.Fozilov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida global va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish metodologiyasi va muammosi, globallashuv va xalqaro raqamli integratsiya sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosida yangi ish o‘rinlarini tashlik etish, aholi bandligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish yo‘llari, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda bugalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistik hisob usullarini takomillashtirish,

MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA OILA XO‘JALIGI - KICHIK VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ASOSI

Iskandarov Sunnatillo Baxriddin o‘g‘li
SamISI Real iqtisodiyot kafedrasi assisenti
Usmonov Murodbek Do‘smurod o‘g‘li
SamISI Raqamli iqtisodiyot kafedrasi assisenti

Annotasiya: *Maqolada mamlakatimizda oila tadbirkorligini tashkil etish,uni davlat tomonidan tartibga solish, rag’balantirish usullari va mexanizmlari tahlil qilindi.Oila xo‘jaligi xususiy tadbirkorlikning asosi ekanligi, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini taminlash, shu orqali aholining daromadini ishirishda ahamiyati katta ekanligi tushuntirib o‘tilgan*

Kalit so‘zlar: *oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ishsizlik,bandlik, daromad, jismoniy va yuridik shaxs.*

O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi bevosita xususiy mulkdorlar sinfining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Chunki davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirilmoqda va yangi yaratilayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar esa, asosan xususiy mulk zamirida shakllanib rivoj topmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz iqtisodiyotining asosini xususiy mulk zamirida faoliyat ko‘rsatadigan tadbirkorlik sub’ektlari tashkil qilmoqda. Shu tufayli ushbu sohani o‘rganishga bir qancha adabiyotlar, ilmiy maqolalar bag‘ishlangan[19]. O‘zR Adliya vazirligi tomonidan tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to‘plami[20] nashr qilingan.

Xususiy mulkka, ya’ni oilaviy tadbirkorlikka asoslangan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shaklida namoyon bo‘lmoqda. Ammo bu sohani rivojlantirish o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini turli mulk shakllariga asoslangan holda, bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Erkin raqobat asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli to‘xtovsiz ortib bormoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni yaratish, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini asosi hisoblanuvchi o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini vujudga keltirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Respublikamizda iqtisodiy

[19] Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 2000, Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 1997; Otaxonov F., Ernazarov U. Xususiy tadbirkorlik. T.: Adolat, 1995; Fulomos S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. T.: Sharq, 2002.; Tuxliev N., O‘lmasov A. Ishbilarmonlar lug‘ati. T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1993.; Xo‘jaev E. va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. Samarqand, 1997.; Ro‘zinazarov va boshqalar. Tadbirkorlik huquqi. Darslik. T.: 2002.; Ro‘zinazarov Sh. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish. T.: TDYuI, 2004.; Qurbonov Z., Yo‘ldoshev P. Tadbirkorlik faoliyatida buxgalteriya hisobi va auditining huquqiy qoidalari. T.: Adolat, 2002. va h.k.

[20] Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to‘plami. T.: O‘zR Adliya vazirligi. 1-tom.-2002.-680 bet., 2-tom – 2003.-702 bet., 3-tom. – 2003. -592 bet., 4-tom.-2003.-656 bet., 5-tom. – 2005.- 432 bet.

o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ularni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan, eng avvalo, xususiy mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shartsharoitlar yaratishga va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga, YaIMda ushbu sohaning ulushini oshirib borishga, bandlik muammosini hal qilishga asos bo‘lmoqda[21]

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil rivojlanib borishini ta’minlash orqali biz mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan o‘rta sinfning shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo‘lib borishiga erishmoqdamiz... Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizning taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda...kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ko‘zga yaqqol tashlanib turgan afzalliklari va katta imkoniyatlari haqida yana ko‘p gapirish mumkin. Lekin bugungi kunda O‘zbekistonda bu sohada hali ishga solinmagan juda katta salohiyat va imkoniyatlar mavjud ekanini, dunyodagi taraqqiy topgan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulot hajmida yetakchi va hal qiluvchi o‘rinni egallayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, bu yo‘nalishda qiladigan ishlarimiz naqadar ko‘pligi ayon bo‘ladi”[22]

Shu boisdan kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizning kelajagini belgilaydigan asosiy sohalardan biriga aylanmoqda. Zero, bu soha yangi ish o‘rinlarini ochish bilan birga, iste’mol bozorini tovar va mahsulotlar bilan to‘ldiradi, turli xizmatlar tizimini yaratadi, mamlakatning YaIMda tegishli ulushga ega bo‘ladi. Agar 1990 yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM)da kichik tadbirkorlikni ulushi atigi 1,0 foiz bo‘lgan bo‘lsa, islohotlarning samarasi o‘laroq 2024 yil 1 yanvar holatiga uning ulushi 51,2 foizni, sanoat mahsulotlari hajmida 26,9 foiz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmida 94,8 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmida 51,4 foizga yetdi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan statistik tadqiqotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan 3 ta omilni rivojlantirishga olib kelishini ko‘rsatmoqda. Ya’ni: birinchidan:aholining daromad omili sifatida hayot darajasini yuksalishiga olib keladi; ikkinchidan:ish bilan bandlik omili sifatida ishsizlikni kamaytirishga olib keladi; uchinchidan:mahsulot va xizmat omili sifatida diversifikatsiyalashga olib keladi.

Mustaqillik yillarining ilk kunlaridan boshlab, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor berib

[21] O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. Lex.uz, 2016 yil 5 oktyabr.
[22]http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/25_A_Boboyev.pdf

kelinmoqda.Bu borada bir qator qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari va boshqa sohani rivojlantirishga oid bir qator me'yoriy – huquqiy xujjatlar qabul qilinib, tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ayniqsa, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish"kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi[23].

O'zbekiston Respublikasida hududlar bo'yicha ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy korxonalari soni va ulushining 2020-2024 yillardagi o'zgarishi

Hududlar	**Ro'yxatga olingan kichik biznes va xususiy korxonalar soni,** *(ta)*		**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy korxonalar soni,** (ta)		**Faoliyat ko'r-satayotgan kichik biznes va xususiy korxonalar ulushi, %**	
	01.01. 2020	**01.01. 2024**	**01.01. 2020**	**01.01. 2024**	**01.01 2020**	**01.01 2024**
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15050	28513	14677	22066	97,5	77,3
Andijon	28880	44924	25807	24381	89,3	54,2
Buxoro	20982	35545	19981	27594	95,2	77,6
Jizzax	14769	26996	14011	16677	94,8	61,7
Qashqadaryo	20921	41915	20304	27980	97	66,7
Navoiy	15511	26014	14885	19539	95,9	75,1
Namangan	22034	36021	21461	23136	97,3	64,2
Samarqand	27322	55029	25643	37398	93,8	67,9
Surxondaryo	15783	31945	15509	20589	98,2	64,4
Sirdaryo	11697	17960	11026	11217	94,2	62,4
Toshkent	38006	59729	32602	38953	85,7	65,2
Farg'ona	29599	55187	29300	36238	98,9	65,6

[23]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

Xorazm	16282	31680	15453	23854	94,9	75,2
Toshkent sh.	77085	123439	74108	87458	96,1	70,8
O‘zbekiston respublikasi	353921	614897	334767	417080	94,5	67,8

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari*[24]

Mazkur tahliliy ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, xususiy, ya’ni oilaviy tadbirkorlikka asoslangan kichik biznes va xususiy korxonalarni rivojlantirishda hali muammolar juda ko‘p. To‘g‘ri, hozir mamlakatimizda bu sohani rivojlantirish uchun tegishli qonuniy asos yaratildi. Ammo tadbirkorlarimiz hali yangi sharoitga ko‘nikma hosil qilib, raqobat sharoitida bemalol faoliyat ko‘rsatish uchun tajribasizlik qilmoqda. Hali bu sohaning rivojlanishiga juda ko‘p sun’iy to‘siqlar ham butunlay barham topgan emas. Shu tufayli Prezidentimiz iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, kichik va xususiy tadbirkorlar faoliyatiga turli nazoratchilarning asossiz aralashuvini cheklash masalasini bejiz ustuvor qilib belgilagan emas. Tadbirkorlik sub’ektlarining rivojlanishi uchun, eng avvalo, ularning erkinligini ta’minlash lozimligi uqtirilmoqda.

Asosiy adabiyotlar

1. Pardaev M.Q., Pardaev Olim, Pardaeva Ozoda O‘zini o‘zi band qilish yo‘llari. Ilmiy tavsiya. Samarqand, SamISI, 2020. – 72 bet.
2. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Darslik. – T.:O‘zbekiston, 1999. - 58-71 betlar.
3. Shodmonov Sh., Jo‘raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma’ruzalar matni. T.: 2000. - 84-87, 245-254 betlar.
4. Петровцы М.М. Эффективность деятельности предприятий-природопользователей (по материалам предприятий Закарпатской области): автореф. дис…канд. экон. наук: 08.06.01. Ужгород, 2004. 20 с.
5. Shadiyeva, G. (2022). The Role of Family Business in the Development of the Service Industry. American Journal of Economics and Business Management, 5(9), 213-218

[24] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2

16	MIRZAEVA SHIRIN	Improving the service sector in rural areas and improving the standard of living of the population in the republic of uzbekistan	54
II SHO‘BA. XALQARO INTEGRATSIYA VA MEHNAT BOZORI IFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA YANGI ISH O‘RINLARI YARATISH, AHOLI FAROVONLIGINI VA TURMUSH SIFATINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI			
17	Кувандиков Шухрат Нематов Жамшид	Барқарор ривожланиш мақсадларида камбағалликка барҳам бериш масалалари	59
18	Mirzaeva Shirin	Improving the service sector in rural areas and improving the standard of living of the population in the republic of uzbekistan	63
19	Iskandarov Sunnatillo	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi banliligini ta’minlash va daromadini oshirish	67
20	Mirzaeva Shirin	The current state of activity and state policy in the field of economic development of service sector entities in the republic of uzbekistan	72
21	Mirzaeva Shirin	Dilemma "problems of development of the service sector in the context of digital changes in the republic of uzbekistan"	76
22	Musinov Dilshod Ortiqov Farmonboy Mexriddinov Fahriddin	Digitalization with the possibility of creating new jobs through the development of the service sector	79
23	З.К.Рахимов	Роль человеческого капитала в эффективном экономическом развитии	82
24	Musinov Dilshod	Foreign experience in supporting entrepreneurship and business activity of women	86
25	З.К.Рахимов	Как искусственный интеллект изменяет электронную коммерцию	91
26	Iskandarov Sunnatillo Usmonov Murodbek	Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda oila xo‘jaligi -kichik va xususiy tadbirkorlikning asosi	94



ISBN: 978-9910-720-29-1